

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

|  |     |
|--|-----|
| <b>A.A.Abduxalimov</b>   |     |
| Andijon viloyatida sog'liqni saqlash muassasalari faoliyatidan.....  | 213 |
| <b>F.K.Yusupjanova</b>   |     |
| Turli tizimli tillarda "head/bosh/ голова" somatik komponenti bilan makallarning qiyosiy-tipologik o'rGANISH .....                         | 217 |
| <b>F.M.Mamadjanov</b>  |     |
| Katta ma'lumotlar asrida milliy xavfsizlik tadqiqotlari .....  | 227 |
| <b>M.Komilova</b>  |     |
| Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni ta'limga jalb qilish .....   | 233 |
| <b>A.A.Abduxalimov</b>   |     |
| Namangan viloyatidagi shifoxonalar faoliyati va ularning moddiy-texnik holati.....   | 239 |
| <b>I.R.Asqarov, M.M.Akbarova, Z.A.Smanova</b>  |     |
| Portulaca oleracea o'simligining kimyoiy xossalari .....   | 242 |
| <b>S.M.Isroilova</b>   |     |
| Muloqot qilish rus tilini oqitish jarayonoda talabalarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish.....                               | 249 |
| <b>Sh.V.Djalolov</b>   |     |
| Umumta'lim maktab tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi va organizmning funksional holatining manoringi ..... | 253 |
| <b>A.A.Qambarov</b>  |     |
| Marg'ilonlik katta ashula darg'alari .....   | 260 |
| <b>D.T.Samatov</b>   |     |
| Falsafa fanini o'qitishda multimedaviy storitellingdan foydalanishning samaradorligi .....   | 265 |
| <b>A.U.Azimov</b>  |     |
| Yuksak axloqiy yoshlarni tarbiyalashda fuqarolik jamiyatining o'rni .....  | 269 |
| <b>A.A.Ahrorqulov</b>  |     |
| Oliy ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurash .....  | 275 |
| <b>D.A.Mamajonova</b>  |     |
| Oliy ta'lim sohasida korrupsiya va korrupsiyaviy xavf-xatar tushunchalari .....  | 279 |
| <b>M.M.Mamadaliyeva</b>  |     |
| Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy xavflar tahlili .....   | 282 |
| <b>U.O'.Musoyev</b>  |     |
| Buxoro xonligida yer egaligi munosabatlari va ularning xududiy tavsifi .....   | 286 |
| <b>D.Y.Tashnazarov</b>   |     |
| Yunon-rum kurashchilarini texnik usullarga o'rgatishda umumiylar va maxsus tayyorgarligi .....   | 291 |
| <b>M.M.Alimova</b>   |     |
| Ikkinchi jahon urushi arafasida mehnat intizomi (Buxoro viloyati) .....  | 299 |
| <b>R.Sh.Bozorova</b>   |     |
| Gidropoetonimlarning onomastik birliklar tizimidagi o'rni .....  | 303 |
| <b>E.X.Zoirov</b>  |     |
| Ya'qubi Charxiyning "Tafsiri" da pir-murshid tushunchasi .....   | 307 |
| <b>A.S.Inomov</b>  |     |
| Ichki ishlar organlarida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlar strategiyasi .....   | 311 |
| <b>I.S.Aslonov</b>   |     |
| O'zbekistonning mustamlakachilik davrida savdo va transport yo'llari tarixi .....  | 316 |
| <b>B.M.Jo'raquziev</b>   |     |
| Yangi O'zbekistonda ijtimoiy siyosat masalalari .....  | 320 |
| <b>O.Radjabov</b>  |     |
| Qirg'izistonda temir yo'llar tarixi .....  | 324 |
| <b>Y.Shukurillaev</b>  |     |
| Sho'ro Rossiysi tomonidan Buxoro amirligining bosib olinishi jarayonida to'plagan razvedka ma'lumotlari tahlili .....                      | 330 |
| <b>M.M.Mamatkodirov</b>  |     |
| Maktablarda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodologiyasini yaratish uchun asosiy tizimli komponentlar .....                        | 333 |
| <b>M.Sh.Qoraboeva</b>  |     |
| Islom falsafasida intellektual faoliyat mezonlariga doir qarashlar tahlili .....   | 338 |

## NAMANGAN VILOYATIDAGI SHIFOXONALAR FAOLIYATI VA ULARNING MODDIY-TEXNIK HOLATI

### ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ БОЛЬНИЦ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ И ИХ МАТЕРИАЛЬНО-ТЕХНИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ

### ACTIVITY OF HOSPITALS IN NAMANGAN PROVINCE AND THEIR MATERIAL-TECHNICAL CONDITION

**Abduxalimov Abduraxmon Abdumominovich<sup>1</sup>**

**<sup>1</sup>Abduxalimov Abduraxmon Abdumominovich** – Andijon davlat tibbiyot instituti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

#### *Annotatsiya*

*Maqolada Namangan viloyatidagi zamonaviy tibbiy uskunalar bilan jihozlangan diagnostika, skrining va perinatal markazlari, yangi tug‘ruqxonalar barpo etilishi va faoliyatini yo‘lga qo‘yilishi birlamchi manbalar asosida tahlil qilingan.*

#### *Аннотация*

*В статье на основе первоисточников анализируется создание и деятельность диагностических, скрининговых и перинатальных центров, оснащенных современным медицинским оборудованием, новых родильных домов в Наманганской области.*

#### *Abstract*

*The article analyzes the construction and operation of diagnostic, screening and perinatal centers equipped with modern medical equipment, new maternity hospitals in Namangan region based on primary sources.*

**Kalit so‘zlar:** Namangan viloyati, shifoxona, ambulatoriya – poliklinika, asbob-uskuna va tibbiy jihozlar.

**Ключевые слова:** Андиканская область, больница, поликлиника, материально-техническая база, места, строительство и ремонт.

**Key words:** Namangan region, hospital, outpatient clinic, equipment and medical equipment.

#### KIRISH

Mustaqillik arafasida olib borilgan islohotlarga qaramay, Namangan viloyati sog‘liqni saqlash tizimi faoliyati va moddiy-texnik holatida qator muammolar mavjud edi. Bu davrda kasalxonalarda 300 o‘rin-joylar tayyorlandi, har smenada 1 ming 380 nafr bemorni qabul qiladigan ambulatoriya – poliklinika muassasalari ishga tushirildi. Kolxzolar mablag‘i hisobidan 200 o‘rinli sanatori y foydalanishga topshirildi. Biroq, bu bilan aholini samarali tibbiyot xizmatiga bo‘lgan ehtiyoji to‘la-to‘kis qondirilmadi [2].

Istiqlolning ilk yilida viloyatda 19 ming 110 o‘ringa ega bo‘lgan 120 ta kasalxona, 12 ta sanatoriya, 45 ta qishloq uchastka kasalxonasi, 470 ta feldsher-akusherlik punktlari [3:115] faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, dastlabki 10 yili mobaynida 1 ming 505 o‘rinli kasalxona, bir smenada 43 ming 700 nafr bemorni qabul qiluvchi poliklinikalar qurilib, shoshilinch tibbiy yordam markazi, viloyat ko‘p tarmoqli kasalxonasi, o’sma kasalliklar, onalar va bolalar fizioterapevtik, yuqumli kasalliklar kasalxonasi foydalanishga topshirildi. Ular zamonaviy tibbiyot apparatlari, asbob-uskunalar bilan jihozlandi.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Semashko nomidagi respublika fizioterapevtik ilmiy tadqiqot instituti, respublika akusherlik va ginekologiya ilmiy tadqiqot instituti va respublika salomatlik institutlarining viloyat filiallari hamda nevrologiya, endokrinologiya va urologiya markazlarining faoliyati yo‘lga qo‘yildi [4:253].

Viloyat hokimligi sog‘liqni saqlash boshqarmasi tizimidagi kapital qurilishining 1999-yil rejasini bajarilishi yuzasidan 20 ta qurilish obyektlarida qurilish va montaj ishlari olib borilib, yil davomida 16 ta qishloq vrachlik punktlari qurilib ishga tushirili. Shu bilan birga Yangiqo‘rg‘on tumani Zarbdor qishlog‘idagi 50 o‘rinli kuniga 150 kishiga xizmat ko‘rsatadigan, Norin tumani Toshqin qishlog‘idagi 60 o‘rinli uchastka shifoxonalari qurilishi davom ettirilib 2000-yilda tugallandi [5:49].

Mazkur davrda sog‘liqni saqlash tizimiga yo‘naltirilgan mablag‘lar orqali viloyatdagи ambulatoriya – poliklinika muassasalari ko‘payganligi ijobiy holat. Viloyatdagи ambulatoriya-

poliklinika muassasalari 1998–yil hisobi bo'yicha 209 tani tashkil etgan bo'lsa, 2001–yilga kelib, 15 taga ko'payib, 224 taga yetgan. Yuqoridagi raqamlardan sog'liqni saqlash muassasalari viloyatning barcha hududlarida yildan-yilga ko'payganligini ko'rshimiz mumkin.

2008–yilga kelib, viloyatda 12 ming 18 o'rinni joyga mo'ljallangan 61 ta shifoxona, umumiyligi quvvati bir smenada 28 ming 400 qatnovga mo'ljallangan 332 ta ambulator poliklinika muassasalari, jumladan, 222 ta qishloq vrachlik punktlari va 9 ta shahar vrachlik punktlari faoliyat ko'rsatgan. Ambulator muassasalarining quvvati har 10 ming aholiga 127,7 ni tashkil qilgan [6].

Tibbiyotning ixtisoslashtirilgan sohalarini rivojlantirish bo'yicha Respublika investitsiya dasturi asosida viloyat kardiologiya dispanseri o'rnida mintaqaviy kardiologiya va kardioxirurgiya markazi tashkil qilish ishlari boshlab yuborildi va umumiyligi qiymati 1 mlrd 200 mln so'mdan ortiq bo'lgan qurilish-montaj ishlari amalga oshirildi.

Viloyatdagi mavjud 14 ta tug'ruq komplekslari va bo'limlari Osiyo Taraqqiyot Banki tomonidan «Ayollar va bolalar salomatligini mustahkamlash» loyihasi bo'yicha jihozlash ishlari rejalashtirilgan va bu loyiha asosida har bir tug'ruq kompleksi uchun 75 ming AQSh dollarini miqdoridagi jihozlar keltirilishi ko'zda tutilgan.

Viloyatning 9 ta tumaniga narxi 8 mln 676 ming 245 so'mlik, umumiyligi summasi 78 mln 86 ming 206 so'mlik «Damas-ambulance» qishloq vrachlik punktlari tibbiy xizmat uchun sanitar avtomashinasi «Salomatlik-2» loyihasi asosida tarqatildi.

Aholi uchun «Tez tibbiy yordam» xizmatini yaxshilash va avtomashinalar parkini yangilash borasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Namangan shahrida aholiga xizmat ko'rsatayotgan brigadalar soni 25 tadan 27 taga yetkazildi. Respublika sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan markazlashgan holda keltirilgan «Hundai-ambulance» sanitar avtomashinalaridan 9 tasi Namangan viloyati uchun ajratildi.

Respublikada bu borada «Ayollar va bolalar salomatligini mustahkamlash», «Salomatlik-2» loyihalari doirasida tibbiyot muassasalariga qariyb 3,5 million AQSh dollarini qiyamatidagi asbob-uskunalar yetkazib berildi [1:56].

Namangan shahar yuqumli kasalliklari shifoxonasini rekonstruksiysi hisobiga viloyat sil kasalliklari shifoxonasini tashkil qilish uchun jami 2008–yil davomida 676 mln so'mlik ishlari olib borildi va rekonstruksianing birinchi bosqichi yakunlandi. 2009–yil davomida rekonstruksiya ishlaringin ikkinchi bosqichiga 425 mln so'm ajratildi.

2010–yilda mavjud 318 ta ambulatoriya poliklinika muassasalarining 260 tasi mustaqil muassasa hisoblangan. Ambulatoriya poliklinika muassasalari tarkibi qishloq vrachlik punkti, shahar vrachlik punkti, dispanser, markaziy tuman shifoxonalari qoshidagi poliklinikalar, hududiy tuman shifoxonalari qoshidagi poliklinikalar, bolalar poliklinikasi, kattalar poliklinikasi, stomatologik poliklinika, markaz va shifoxonalar qoshidagi poliklinikalardan iborat. Ambulatoriya poliklinika muassasalarining quvvati 27 ming 767 ta bo'lib, har 10 ming aholini ta'minlanishi 120,5 ni tashkil qilgan [6].

Viloyatda 2010–2011–yillarda jami 318 ta ambulatoriya-poliklinika muassasalari faoliyat yuritgan bo'lsa, shundan, 242 ta qishloq vrachlik punkti, 19 ta markaziy tuman shifoxonalari qoshidagi poliklinikalar, 18 ta dispanser, 10 ta oilaviy poliklinikalar, 9 ta shahar vrachlik punkti, 6 ta stomatologik poliklinika, 6 ta markaz, 5 ta shifoxonalar qoshidagi poliklinika va 3 ta hududiy tuman shifoxonalari qoshidagi poliklinikalardan iborat bo'lgan. Ularning 263 tasi mustaqil muassasa hisoblangan. Ambulatoriya poliklinika muassasalarining quvvati 27 ming 325 ta bo'lib, har 10 ming aholini ta'minlanishida 112,9 ni tashkil qilgan. Natijada o'tgan yilning mos davriga nisbatan jami quvvatlar soni 442 taga aholining ta'minlanishi esa 7,6 foizga o'sgan [6].

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tabiiyki, sog'lom avlod deganda, barchamiz birinchi navbatda sog'lom nasli tushunamiz. Shu borada o'tgan yillar davomida «Sog'lom ona – sog'lom bola» g'oyasini o'zida mujassam etgan dastur asosida keng ko'lamli chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga joriy etildi. Xususan, zamonaviy tibbiy uskunalar bilan jihozlangan diagnostika, skrining va perinatal markazlari, yangi tug'ruqxonalar barpo etish, bir so'z bilan aytganda, onalar va bolalar salomatligini himoyalash maqsadida markazda va joylarda ancha ishlar qilindi.

Bu ishlarni e'tirof etgan holda, turli xil sabablar tufayli inson sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan xavf-xatarlarning oldini olish, tibbiy xizmatning moddiy-texnik bazasini yanada

---

## ILMIY AXBOROT

mustahkamlash, shu sohaga posbon bo'lgan shifokorlarning mehnatini rag'batlantirish bo'yicha bugun oldimizda yangi-yangi vazifalar paydo bo'layotganini ham biz yaxshi tasavvur etamiz.

Mamlakatda «Ona va bola skriningi» Davlat dasturi doirasida viloyatlar markazlarida yangi skrining markazlari tashkil etildi. Mintaqaviy markazlar budget mablag'lari hisobidan zamonaviy diagnostika va laboratoriya uskunalari, zarur materiallar bilan ta'minlandi.

Bu o'z navbatida ko'plab irsiy kasalliklarning oldini olish va davolashni yuqori darajaga ko'tarish, bolalarning irsiy xastaliklar bilan va nuqsonli tug'ilishining xavfini kamaytirish imkonini berdi.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda mustaqillik yillarda mamlakatda bo'lgani singari Namangan viloyati sog'liqni saqlash tizimida ham ekstensiv rivojlantirish yo'lidan voz kechilib, uzil-kesil intensiv takomillashtirish yo'liga o'tildi. Kamquvvat va samarasiz bemor o'rinnlari soni qisqartirildi. O'z navbatida tibbiyotga ajratilgan mablag'ning asosiy qismi ambulatoriya-poliklinika sharoitida kasalliklarning oldini olish va bemorlarni davolash uchun sarf qilidi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash – bizning oly maqsadimiz. – Toshkent: «O'zbekiston», 2009.
2. Namangan haqiqati. 1991 yil 9 fevral. – №27.
3. Xaydarov Z. Namangan viloyatining sovet davri va mustaqillik yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tarixi: qiyosiy tahlil. – Diss. Tarix fan. nomz. Namangan, 2017.
4. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 6-tom. – Toshkent: 2003.
5. Namangan viloyati davlat arxivi, 908-fond, 1-ro'yxat, 279-yig'majild.
6. Namangan viloyati Sog'liqni saqlash boshqarmasi ma'lumotlari.